JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr 208-3-53-Q/21 Forish tuman hokimligi

Forish tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash hamda obodonlashtirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi:

-fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

-sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda qabristonlarning ma’muriyati:

-xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan

holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

-qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning www.forish.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **И.Матиев**

Фориш туман ҳокимининг
2021 йил 31 декабрдаги
208-3-53-Q/21-сон қарорига
1-илова

Forish tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Mahalla bo’yicha	Mahalla bo’yicha
1	Go‘r qazish	1 o‘ringa		
2	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	Bepul	Bepul
3	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul	Bepul

***Mahallalarda narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.**